




INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

ZAMONAVIY ILM-FAN VA TA'LIM: MUAMMO VA YECHIMLAR ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



+998335668868

<https://innoworld.net>

Google Scholar doi

zenodo

OpenAIRE

2025



**«INNOVATIVE WORLD» ILMIY TADQIQOTLARNI QO'LLAB-
QUVVATLASH MARKAZI**

**«ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOTLAR: MUAMMO VA
YECHIMLAR» NOMLI 2025-YIL № 5-SONLI ILMIY, MASOFAVIY,
ONLAYN KONFERENSIYASI**

**ILMIY-ONLAYN KONFERENSIYA TO'PLAMI
СБОРНИК НАУЧНЫХ-ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЙ
SCIENTIFIC-ONLINE CONFERENCE COLLECTION**

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



Directory of Research Journals Indexing

www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2025



Volume 2 Issue 5 | 2025 |

+99894 5668868 | @Anvarbek_PhD

Page | 2

Maktabgacha yoshdagi bolalar hayotida san'atning ôrni.**Olimjonova Sarvinoz Sanjarbekovna**

Buxoro davlat pedagogika instituti

Magistratura bo'limi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolamning mazmuni shundan iboratki, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun badiiy estetika, estetik did, san'at va musiqaning ta'siri qanchalik kuchli va ularni ôrgatishdan kôzda tutilgan maqsad nima? Bolalar hayotida ijodkorlikka va san'atga kôproq erkinlik berish tarafdoriman. Erkinlik bizga qanday natija beradi? Masalan, bolalarning dunyoqarashi va shaxsiy fazilatlarini yanada bilib olishimizga imkon yaratadi. Ularning ichki kechinmalari ijodkorlikda yanada namoyon bôladi.

Kirish. San'at ôzi nima? San'at insonning ichki dunyosini his tuyg'ularini, hayotga qanday qarashini badiiy obrazlar orqali ifodalovchi ijodiy faoliyatdir. San'at bu nafaqat gôzallik yaratish, balki inson ruhiyatini chuqur aks ettirish vositasidir. San'atning turlari juda kôp va ular xilma xil. Kattalar hayotida qanday ahamiyat kasb etsa bolalarda ham huddi shunday muhim ahamiyatga ega. Ba'zan, insonlar orasida "bola san'atni tushunarmidi?", "hali yosh bola ku " kabi fikrlar quloğimizga chalinadi. Ammo bolalarga san'atni ôrgatish unga qiziqtirish avvalo ularning kelajak kasblarini aniqlashga, ichki qobilyatlarini aniqlashga, eng muhimi ichki kechinmalarini namoyon etishga katta yordam beradi.

Asosiy qism. Masalan, tasviriy san'at — rasm, haykallar yasash, grafika bular bolalarning dunyoqarashini ôstirishga, ruhiy holatini bilib olishimizga yordam beradi. Hozirda barcha MTT larda rasm faoliyati qat'iyân ôtkaziladi. Tarbiyachilar va psixologlar rasmlar bilan ishlashadi. Tarbiyachilar mashg'ulotlar davomida rasm faoliyatini olib borsa, psixologlar ular orqali har bir bola bilan ishlashadi. Kun mavzusiga oid turli rasmlar chizishadi, ranglar bilan bôyashadi. Psixologlar bolalarga turli topshiriqlar berishadi. Masalan, hozirda keng tarqalgani oila rasmini chizish, barcha bolalar oila a'zolarini rasmda ifodalashadi. Bu rasmlar orqali oilada muhit qanday?, bolaga e'tibor qay darajada? savollarga javob olishadi. Bolalar kôproq qanday ranglardan foydalanishiga qarab ichki ruhiy holatini bilib olish mumkun. Shu boisdan, bolalarda rasm faoliyati muhim va rasm ham san'at turlaridan biri hisoblanadi.

San'at turlaridan yana biri adabiyot. Adabiyot — she'r, ertaklar, hikoyalar, romanlar va boshqalarni ôz ichiga oladi. Bu san'at turi bolalar hayotida muhim ahamiyatga ega. U bolaning his tuyg'ularini shakllantiradi, uni yaxshilik va yomonlikni farqlay oladigan, gôzallikni qadrlaydigan inson qilib tarbiyalaydi.

Adabiyot — bolalar uchun tarbiya vositasidir. Bolalar ertaklar orqali yaxshilik va yomonlikni, halollik, mehnatsevarlik, dôstlik kabi insoniy fazilatlarini ôrganadi. Masalan, xalq ertaklarida yovuzlik, yomon odatlar

qoralanadi,jazolanadi va oxirida yaxshilik ğalaba qozonadi.Bu bolada axloqiy qadriyatlarni mustahkamlaydi.Adabiyot ya'ni adabiy asarlar bolalarda sôz boyligini kengaytiradi.Masalan,she'rlarni ôqib berish,yod oldirish orqali ularda yangi sôzlar paydo bôladi va nutqini rivojlantirishga yordam beradi.

Musiq — san'at turlari ichida eng keng tarqalgani.Bolalar mavzusida musiqaga e'tibor qaratmaslikning iloji yôq.Musiq bolaning ruhiy holatini tinchlantiradi va ularga sabr,mehr,sezgirlik kabi hislarni singdiradi.Quvnoq kuylar bolalar kayfiyatini kôtarsa, sokin musiqalar tinchlantiradi.Tadqiqotlarning kôrsatishicha,musiqaga qiziqqan bolalarda xotira,diqqat va tafakkur faolroq rivojlanadi.Masalan guruh bôlib kuylash bolalarni jamoaga moslashishga va boshqalar bilan hamkorlik qilishga ôrgatadi.MTT larda har kuni ertalab bolalar badantarbiya mashqlarini bajarishadi bu jarayon ham musiq bilan amalga oshiriladi.Har kuni ertalab bolajonlarni quvnoq musiq bilan kutib olish tarafdoriman.Bolalarda kun davomidagi kayfiyatga juda ijobiy ta'sir kôrsatadi.Bolalarda musiq bilan harakatlanish ularning motorika va koordinatsiyasini yaxshilaydi.Shuningdek,stressni kamaytiradi,uyqu sifatini yaxshilaydi.

Muhokama va natijalar.Îjodiy faoliyat MTT uchun eng kerakli faoliyat turidir.Bunda bolalarda turli emotsiyalar shakllanadi va vaqtni yanada mazmunliroq ôtkazishadi.Biron ertakni sahnalashtirish orqali bolada jamoa bilan ishlash kônikmasi shakllanadi.Berilgan rolida ôzini qanday namoyon etishiga qarab bolalar haqida kôp narsalarni bilib olish mumkun.Ular orasida liderlar ajralib chiqadi.Jamoaga qôshilishga qiynaladigan bolalar bilan alohida indevedual ishlash jamoaga ôrgatish juda muhim va bular tarbiyachilar zimmasidagi vazifalar hisoblanadi.Bolalarga dunyoni yaxshilik bilan tanitishda xalq ertaklarining ahamiyati katta va barcha MTT larda ertaklar,xalq oĝzaki ijodiga yanada e'tibor qaratilishi kerak.Bolalar bilan sahnalashtirish ishlari olib borilganda ularni erkin qôyib kuzatish lozim.Ular rollarni tanlab olishyotganda ham aslida qiziqishlari yoki ruhiy holatlarini aks ettirishadi.

Olib borilayotgan tahlillar shuni ko'rsatadiki,san'at bolalar shaxsini har tomonlama rivojlanishiga yordam beruvchi vosita hisoblanadi.Tadqiqot davomida aniqlanganidek,ijodiy faoliyat bilan shug'ullanish jarayonida badiiy obrazlarni idrok etish,o'z hissiyotlarini ifoda qilish imkoniyatlarini egallaydi.Bu olib borilayotgan jarayonlar bolaning tafakkuri,emotsional barqarorligi va kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Muhokama jarayonida aniqlanadiki,san'atning ta'lim-tarbiya jarayoniga integratsiyalashuvi bolaning manaviy va ruhiy rivojlanish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.Shu bilan birga,bolalarda milliy qadriyatlarga hurmat va ularni qadrlash imkoniyatini yaratadi.Tadqiqot natijalari ilgari o'tkazilgan

tadqiqotlarda qayd etilgan fikr mulohazalarni tasdiqlaydi va hozirgi zamon bilan uyg'unlikda ekanligini ko'rsatadi.

XULOSA. Tasviriy san'at, raqs, musiqa, badiiy adabiyot kabi faoliyat turlari bolalarning nutqiy, psixologik, kognitiv rivojlanishiga kompleks ta'sir ko'rsatadi. San'at asosida tashkil etilgan faoliyat turlari bolalarni erkin fikrlashga, o'z qobiliyatlarini erkin ifoda etishga va jamoaviy ruhda tarbiyalanishga keng imkon yaratadi. San'at va ta'lim jarayonining birgalikda olib borilishi ya'ni integratsiyasi bolalarda motivatsiyaning oshishiga va psixologik muhit shakllanishiga olib keladi. Ijodkorlik orqali tarbiya bolalarning milliy qadriyatlariga hurmat bilan qarashini, emotsional sezgirlik va ma'naviy madaniyatini rivojlantiradi. San'atga asoslangan tarbiyaviy faoliyat bolalarda estetik go'zallikni anglash va qadrlash qobiliyatini shakllantiradi.

Olingan ilmiy natijalar asosida shuni ta'kidlash joizki, ijodiy faoliyat tarbiyalanuvchilar rivojlanishida strategik ahamiyatga ega bo'lgan vosita hisoblanadi. Shuning uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ijodiy faoliyat mashg'ulotlarining sifatini oshirish, zamonaviy jihozlar va zamonaviy metodlarni joriy etish, pedagoglar va musiqiy rahbarlar malakasini muntazam oshirish zarur. San'at ta'limining rivojlantirilishi bolalarning ijodiy salohiyat, qobiliyatlarini yuzaga chiqaradi va kelajakda estetik madaniyati yuqori barkamol avlodlar tarbiyalanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

O'zbekiston Respublikasi. Maktabgacha ta'lim konsepsiyasi. 2019-yil.

O'zbekiston Respublikasi. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020-yil.

Jo'rayev N. Pedagogika asoslari. Toshkent: Fan. 2020-yil.

Abdullayeva Z. Bolalarda estetik didni shakllantirishning pedagogik asoslari. PhD dissertatsiyasi. Toshkent. 2021-yil.

Vygotskiy L.S. Art and Psychological Development. New York. 2019.

Gardner H. Art, Mind and Brain. — USA: Basic Books, 2020. — 210.

Montessori M. The Discovery of the Child. — London: Oxford Press, 2018.

Hasanov B. San'at va estetik tarbiya. — Toshkent: Fan, 2019. — 220.

Qodirova D. Maktabgacha yoshdagi bolalarga estetik tarbiya berish metodlari. — Toshkent: Istiqlol nashriyoti, 2021. — 176 b.

Karimova D. San'atning bolalar rivojlanishidagi o'rni // Pedagogika va Psixologiya jurnali. — 2022. — №3. — B. 45–52.

Nazarova R. Musiqa ta'limining bolalar psixologiyasiga ta'siri // San'atshunoslik axborotnomasi. — 2020. — №1. — B. 72–80.

